

NAVOIY VILOYATIDA TABIIY RESURLARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Shodiyev Sanjar Ro'ziqulovich

NavDU Geografiya kafedراسى mudiri, professor

Sobirova Munisa Toir qizi

NavDU Geografiya kafedراسى o'qituvchisi

Tuychiyeva Mohigul

NavDU Geografiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Shomuratov Ixlosbek Aybek o'g'li

NavDU Geografiya mutaxassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya. Tabiiy resurslar tabiatda mavjud bo'lgan va inson tomonidan yaratilmaydigan insonning hayoti, xo'jalik faoliyati uchun zarur bo'lgan barcha tabiiy jismlar hisoblanadi. Muallif tomonidan ushbu maqolada tabiiy resurslar bo'yicha fikr mulohaza yuritilgan. Shuningdek tabiiy resurslar mamlakatning iqtisodiyotini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Kalit so'zlar: Tabiiy resurslar, oqilona foydalanish, muhofaza qilinish uchun olib boriladigan ishlar, yer osti yer usti suvlari, sanoat, xo'jalik va mineral resurslar.

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ПРИРОДНЫХ РЕСУРСОВ В РЕГИОНЕ НАВАИ

Шодиев Санжар Рузикулович

Заведующий кафедрой географии НавГУ, профессор

Собирова Муниса Тоир гызы

Преподаватель кафедры географии НавГУ

Туйчиева Мохигул

Студент 2 курса магистратуры по географии НавГУ

Шомуратов Ихлосбек Айбек оглы

Студент 2 курса магистратуры по географии НавГУ

Аннотация. Природные ресурсы — это все природные объекты, существующие в природе и не созданные человеком, которые необходимы для жизни и экономической деятельности человека. В данной статье автор размышляет о природных ресурсах. Природные ресурсы также играют важную роль в развитии экономики страны.

Ключевые слова: Природные ресурсы, рациональное использование, работы по охране природы, подземные и поверхностные воды, промышленные, бытовые и минеральные ресурсы.

SPECIFIC ASPECTS OF NATURAL RESOURCE USE IN THE NAVAII REGION

Shodiyev Sanjar Ro'ziqulovich

Head of the Department of Geography, NavSU, Professor

Sobirova Munisa Toir qizi

Teacher of the Department of Geography, NavSU

Tuychiyeva Mohigul

2nd year master's student in Geography, NavSU

Shomuratov Ikhlosbek Aybek o'glu

2nd year master's student in Geography, NavSU

Annotation. Natural resources are all natural objects existing in nature and not created by humans, which are necessary for human life and economic activity. In this article, the author reflects on natural resources. Natural resources also play an important role in developing the country's economy.

Keywords: Natural resources, rational use, work carried out for protection, underground and surface water, industrial, household and mineral resources.

Hozirgi davrda tabiiy resurslardan oqilona foydalanish masalasi jahonda eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Aholi sonining o'sishi sanoat va qishloq xo'jaligining jadal rivojlanishi tabiatga bo'lgan bosimni kuchaytirmoqda. Natijada yer, suv, mineral va bioresurslarning kamayishi ekologik muammolarning chuqurlashuvi kuzatilmog'da. Shu sababli hududiy xususiyatlarni inobatga olgan holda tabiatdan foydalanish masalalarini o'rganish muhim ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining yirik sanoat hududlaridan biri bo'lgan Navoiy viloyati tabiiy resurslarga boyligi bilan ajralib turadi. Viloyatda oltin, uran va boshqa foydali qazilmalarning mavjudligi, keng yaylovlar va cheklangan suv resurslari tabiatdan foydalanish masalasini yanada murakkablashtiradi. Ayniqsa, konchilik sanoati, sug'oriladigan dehqonchilik va chorvachilik faoliyati atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Navoiy viloyati O'zbekistonning eng yosh viloyatlaridan biri hisoblanadi. Viloyat O'zbekistonning markaziy qismida joylashgan, shu bilan birga mamlakatimizda hududiy jihatdan eng katta ma'muriy birlik bo'lib, Qoraqalpog'istondan keyingi ikkinchi o'rinni egallaydi. Viloyatning shimoli-g'arbiy qismi Qizilqum platosi bilan chegaradosh, sharqda esa go'zal Nurota tog'lari bilan o'ralgan. Viloyatning janubiy tomoni Zarafshon daryosi suvlari bilan yuviladi. Zarafshon daryosining yaqinligi, yirik qishloq xo'jaligi hududning markazida joylashganligi, transport bilan yaxshi ta'minlanganligi shaharning tez o'sish omili bo'lib kelmoqda.

Navoiy viloyat zaminida shifobaxsh, sho'r va yer osti chuchuk suv zahiralari aniqlangan bo'lib, Tomdibuloq, Qaraqota, Chingildi atrofida topilgan

minerallashtirilgan suvdan xalq salomatligini mustahkamlash va tiklash, hamda xo‘jalik ishlarida umumiy foydalanilmoqda. Viloyatning asosiy suv manbai yuqorida ta’kidlanganidek Zarafshon daryosi hisoblanadi.

Viloyatning geografik joylashuvi, iqlimi va tog‘ kon sanoati rivojlanganligi sababli bu yerda turli xildagi tabiiy, minerallashtirilgan boyliklar mavjud. Hudud O‘zbekistonning eng yirik tog‘-kon sanoat markazlaridan biri bo‘lib, ayniqsa quyidagi foydali qazilma boyliklariga ega:

Oltin (*Au*) - dunyoning eng yirik oltin konlaridan biri bo‘lgan Muruntov koni aynan ushbu viloyatda joylashgan. Mazkur kon O‘zbekistonning eng yirik sanoat tarmog‘i hisoblanadi.

Uran (*U*) - O‘zbekistonda qazib olinadigan uranning eng katta qismi aynan mazkur viloyatga to‘g‘ri keladi. Uran asosan eksport qilinadi va atom energiyasi uchun xom ashyo hisoblanadi. Bu esa respublikamizning yetakchi tarmog‘i sanaladi.

Mis (*Cu*) va Volfram (*W*) - viloyatda mis va volfram zahiralari ham aniqlangan bo‘lib, ularning sanoatda ahamiyati yuqori hisoblanadi.

Ohaktosh (*CaCO3*) va marmar () - Qurilish sanoati uchun muhim bo‘lgan ohaktosh va marmar konlari viloyatning qurilish sanoati uchun muhim tabiiy resurs sanaladi.

Ko‘mir (*C*) va fosfarit (*Ca3(PO4)2*) - ba’zi hududlarda ko‘mir va fosfarit konlari zahiralari mavjud bo‘lib, uning viloyat sanoatidagi ulushi nisbatan pastroq hisoblanadi.

Zarafshon daryosi-Asosiy suv manbai bo‘lib, viloyatning qishloq xo‘jaligida katta ahamiyatga ega.

Yer osti suvlari - ichimlik suvi va sanoat uchun foydalaniladigan yer osti suvlari mavjud.

Navoiy viloyatining yer resurslari asosan Qizilqum cho‘li hududida joylashgan bo‘lib, tekislik va qumliklardan iborat. Viloyatning asosiy yer maydoni 103092 gektardan ortiq bo‘lib, qishloq xo‘jaligi uchun yaylovlar, intensiv bog‘lar

va issiqxonalar mavjud. Viloyat O'rta Osiyoning yirik elektr energiya va kimyo sanoati markazi hisoblanadi. Hududda 21 ta sanoat korxonasi mavjud bo'lib, mazkur korxonalar yalpi milliy mahsulotning asosiy ko'rsatkichlarini beradi. Viloyat sanoat tarmoqlarida elektr quvvati, mineral o'g'itlar, sintetik tolalar hamda kislota ishlab chiqariladi.

Navoiy viloyatida 8 ta tuman bo'lib, tumanlarni esa tabiiy resurslari tarkibini to'la tahlil qilgan holda o'rganish mumkun:

Uchquduq tumani – tuman ma'muriy birlik sifatida 1982-yil 12-martda tashkil etilgan bo'lib, asosan tabiiy resursga boy o'lka hisoblanadi. Uning maydoni 46,63 ming km² ni tashkil etadi. Tuman shimoldan Qozog'iston Respublikasi, g'arbdan Qoraqalpog'iston Respublikasi, janubdan Buxoro viloyati va sharqdan Tomdi, Konimex tumanlari bilan chegaradosh. Relyefi asosan tekislik bo'lib, Qizilqum cho'lida joylashgan. Tuproqlari taqirli, sur-qo'ng'ir va qumli tuproqlardan iborat. Yovvoyi o'simliklardan saksovul, yantoq, isiriq, tuyaqorin, selin, quyonsuyak kabilar o'sadi. Uning zaminida uran, oltin, kumush, tabiiy gaz (Gazli, Toshquduq) qurulish materiallari (qum, shag'al) shu bilan birga turli metallar va tabiiy resurslar uchraydi. Shu sababli hududda yirik kon sanoati faoliyat yuritadi. Cho'l-yaylov hududlaridan chorvachilik maqsadlarida foydalaniladi.

Tomdi tumani –ma'muriy birlik sifatida 1927-yil 3-iyulda tashkil etilgan. Maydoni 42,4ming km² Janubiy qismidan Konimex, Nurota tumanlari, shimoliy qismidan Qozog'istonning Qizilo'rda, sharqiy qismidan Janubiy Qozog'iston viloyatlari, janubi-sharqdan Jizzax viloyati, g'arbiy qismidan Uchquduq tumani bilan chegardosh. Tomdi tumanida dunyodagi eng yirik oltin konlaridan biri Muruntov oltin koni ham joylashgan, bunga ko'ra nodir metallar koni ham mavjud, shu bilan birga qurulish materiallari (kvars qumi, ohaktosh, marmar, shag'al). Yerosti suvlari (arteziayan quduqlar) aholi va chrva uchun asosiy manba hisoblanadi.

Konimex tumani – tuman ma'muriy birlik sifatida 1925-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Maydoni 15,5 ming km² ni tashkil etadi, tuman viloyatning shimoli-g'arbida joylashgan. Sharqdan Navbahor, shimoli-sharqdan Nurota, g'arbdan Tomdi, Uchquduq janubdan Qiziltepa tumanlari, g'arbdan Buxoro viloyatining G'ijduvon, Peshku tumanlari bilan chegaradosh. Hududda fosforit, uran, qurulish materiallaridan ohaktosh, gips, qum va shag'al kabi xomashyo zaxiralari mavjud va tuz kon zaxiralari ham uchraydi.

Nurota tuman- tuman 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Maydoni 6,5 ming km² ni tashkil etadi. U shimolda tomdi tumani, g'arbda Konimex tumanlari, Buxoro viloyati, sharqdan Jizzax viloyati, janubdan Xatirchi tumanlari, Samarqand viloyati bilan chegaradosh. Nurota tuman geografiyasi Navoiy viloyat tumanlari orasida eng xilma-xil. Tumanning shimoliy va g'arbiy qismida cho'l va dashtlar, janubiy va sharqiy qismlarini tog'lar, yaylovlar va sug'oriladigan yerlar egallaydi. Tumanda asosan marmar va granitning yirik konlari bor. Tuman qishloq xo'jaligi asosan chorvachilik va dehqonchilik (g'allakorlik)ka ixtisoslashtirilgan.

Xatirchi tuman-tuman 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan, 1992-yilda Samarqand viloyati tarkibidan Navoiy viloyat tarkibiga kiritilgan. Maydoni 1,37 ming km² tashkil etadi. Tuman shimoldan va shimoliy g'arbdan viloyatning Nurota, g'arbda Navbahor tumanlari bilan, janubdan Zarafshon daryosi orqali Samarqand viloyatining Paxtachi va Narpay tumanlari, janubi-sharqdan Kattaqo'rg'on hamda shimoli-sharqdan Qo'shrabod tumanlari bilan chegaradosh. Zarafshon daryosi va tuman hududidan o'tuvchi kanallar sug'orma dehqonchilik uchun muhim ahamiyatga ega. Tumanda paxtachilik, g'allachilik, mevachilik (meva, turshak, mayiz) va poliz ekinlari yetishtirish rivojlangan. Shu bilan birga qurulish materiallari (ohaktosh, shag'al, gips) va metallmas foydali qazilmalar, mineral xomashyolar keng tarqalgan.

Karmana tuman-Tuman 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan. Maydoni 0,95 ming km² ni tashkil etadi. Navoiy viloyatining markaziy qismida joylashgan bo'lib asosan Zarafshon daryosi vodiysidagi unumdor yerlar chuchuk yerosti

suvlari zahiralari va qorako'chilik uchun yaylovlarga boy hisoblanadi. Asosan suv manbalari Zarafshon daryosi, Amu-Buxoro mashina kanali (Navoiy shoxobchasi), hamda Kasaba, Xonim, Narpay kanallari. Sug'oriladigan madaniylashgan, o'tloq, sur-qo'ng'ir va sho'rtob tuproqlar. Yer yuzasi qiya bo'lib, adirlar va quruqdaryo o'zanlarida chuchuk suv zaxiralari mavjud. Tabiatida jiyda, tol, oq va qora saksavul, yantoq, yulg'un shuvoq, isiriq, juzg'un, cherkez, quynsuyak, segin, iloq, qamish va sho'rva kabi o'simlik o'sadi. Bundan tashqari shag'al, qum, ohaktosh, gips va boshqa qurulishbop materiallarni ham ko'rish mumkin.

Qiziltepa tumani-Tuman 1935-yil 9-fevralda tashkil etilgan. Maydoni 2,2 ming km² ni tashkil etadi. Tuman Zarafshon daryo vodiyyida, Malikcho'l va Qizilqum cho'llari tutashgan hudda joylashgan. To'dako'l va Quyimozor suv omborlari muhim suv manbalari hisoblanadi. Tuman och bo'z va qumoq tuproqlarga ega bo'lib, qishloq xo'jaligi (paxtachilik, g'allachilik) rivojlangan. Shimoliy chegaradan oqib o'tuvchi Zarafshon daryosi, shuningdek yirik To'dako'l va Quyimozor nasos omborlari hamda Amu-Buxoro kanali (Qiziltepa va Quyimozor nasos stansiyalari orqali suv ta'minotini ta'minlaydi. Hududda qum, shag'al, ohaktosh va gips kabi foydali qazilma konlari uchraydi, ular asosan qurulish va asosan qurulish sanoat ehtiyoji uchun foydalaniladi.

Navbahor tumani - hudud 1980-yil 12-martda tashkil etilgan. Maydoni 1,57 ming km²ni tashkil etadi. Tuman asosan viloyatning janubi-sharqida, ya'ni Zarafshon daryosining shimoli-sharqiy qirg'og' bo'ylab Qoratov va Zarafshon daryosi oralig'ida joylashgan. Navbahor tumani hududining ko'p qismi cho'l, relyefi notekis, chuqurlik va tepaliklar almashinib boradi. Tuproqlari lyos, bo'z, qo'ng'ir, sho'rtob tuproqlar. Yovvoyi o'simliklardan yantoq, shuvvoq, isiriq qamish, zarpechak va boshqa o'sadi. Tuman xo'jaliklari suvni Zarafshon daryosidan chiqqan O'ng qirg'oq kanali, Konimex, Chovli, Arabsaroy ariqlaridan oladi.

Navoiy viloyatining tabiiy resurslardan foydalanishdagi ahamiyati yuqori bo'lib, unda sanoatning mujassamlashuvi kuzatiladi. Shuningdek, viloyatning

ma'muriy birliklarida o'rganilganidek tabiiy resurslar notekis joylashgan. Bu esa tabiiy resurslardan samarali foydalanish, uning optimallashtirish masalalarini yechish yo'llarini ishlab chiqishni taqozo etadi. Viloyatda sanoat parkini shakllantirib, ko'p tarmoqli sanoat mahsulotlarini ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. A.S.Soliyev, Sh.Z.Jumaxanoz, A.M.Toshp'latov "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya" darslik, "Mashrab" nashriyot, 2024
2. N.K.Komilova, Sh.Z.Jumaxanov "Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya metodologiyasi" darslik, Toshkent. "MALIK PRINT CO", 2021
3. Zakirov, S. S. (2023). Deepening Of Territorial Specialization in The Production of Agricultural Products (In the example of the suburbs of the city of Navoi). Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences, 19, 8-15.
4. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. — Ta'lim va tarbiyada zamonaviy pedagogik texnologiyalar. — Toshkent, 2017.
5. Худойбердиева, И. А., & Утаева, Р. О. (2024). КЛАССИФИКАЦИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОТРАСЛЕЙ С ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ЖИВОТНОВОДСТВА НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ). Экономика и социум, (12-1 (127)), 1155-1161.
6. Latipov, N. (2022). Shaharlar va ularning ekologik muhit bilan bog'liqligi. Scienceweb academic papers collection.
7. Latipov, N. F. (2024). THE PROCESS OF URBANIZATION AND ITS CORRELATION WITH THE ECOLOGICAL CIRCUMSTANCE. Science and innovation, 3(Special Issue 4), 343-352.
8. Худойбердиева I.A., & Ahmatova S.N. (2024). ECONOMIC GEOGRAPHICAL DESCRIPTION OF KHARTICHI DISTRICT. Экономика и социум, (11-2 (126)), 516-520.
9. Mukhammedova Nazokat Jurayevna (2018). The geographical features of population mortality in Uzbekistan. European science review, (1-2), 35-38.

10. Sh, N. S. (2021). MIGRATORY PROCEDURES HUMAN RESOURCES IN GLOBALIZATION PROCESS. Теория и практика современной науки, (8 (74)), 3-5.
11. Шодиев, С. Р., Чембарисов, Э. И., & Шодиева, Г. Р. (2021). Минерализация и химический состав речных и коллекторных вод Кашкадарьинской области Республики Узбекистан. Экономика и социум, (2-2 (81)), 353-359.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi (stat.uz)